



EPITET -TILNING TASVIRIY-IFODA VOSITASI SIFATIDA

Mardonova Ra’no Ochildiyevna
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: baktratermez@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0009-9982-4213>

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslikda ifodaviylik va obrazlarni kuchaytiruvchi uslubiy vosita- epitetga ta’rif berish muammosiga bag‘ishlangan. Bu atamaning yagona ta’rifi haligacha mavjud emasligi bois, ko‘plab tilshunos olimlar epithetni trop yoki uslubiy vosita ekanligiga shubha qilishadi. Yagona konsepsiya talqinining mavjud emasligi, epithetni nutqda qo‘llanilishini tavsiflashga imkon bermaydi. Mazkur maqolada epithet nazariyasiga ba’zi bir tilshunos olimlarning bergan ta’riflari keltirilib, ushbu uslubiy vositaning talqini ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: epithet, badiiy nutq, uslubiy vosita, aniqlovchi, mantiqiy ma’no.

ЭПИТЕТ-КАК ОБРАЗНО-ВЫРАЗИТЕЛЬНОЕ СРЕДСТВО ЯЗЫКА

Аннотация: данная статья посвящена проблеме определения эпитета - стилистического средства усиления выразительности и образности в языкоznании. Поскольку единого определения этого термина до сих пор не существует, многие лингвисты сомневаются, является ли эпитет тропом или стилистическим приемом. Отсутствие единой концептуальной трактовки не позволяет охарактеризовать использование эпитета в речи. В данной статье приводятся определения теории эпитетов, данные некоторыми лингвистами, и рассматривается интерпретация этого стилистического приёма.

Ключевые слова: эпитет, художественная речь, Стилистический прием, определитель, логическое значение.

EPITHET-AS A FIGURATIVE AND EXPRESSIVE MEANS OF LANGUAGE

Annotation: This article is devoted to the problem of defining an epithet - a methodological tool that enhances expressiveness and images in linguistics. Since the only definition of the term does not yet exist, many linguistic scholars doubt whether the epithet is a trop or a methodological tool. The absence of a single concept interpretation does not allow the description of the use of the epithet in speech. In this article, the interpretation of this stylistic

device is considered, citing the definitions given by some linguistic scientists to the theory of epithets.

Keywords: epithet, artistic speech, stylistic device, determinant, logical meaning.

KIRISH

Har bir o‘rganilayotgan narsaning nazariyasini yaratish uchun uning tarixini mukammal bilish talab qilinganidek, epitet haqidagi qarashlar, ta’rifarni qiyosiy o‘rganmay turib, o‘zbek va ingliz she’riyatidagi epitetenning estetik mohiyati va poetik vazifalarini aniqlash mumkin emas. Shuning uchun biz dastlab epitetylар haqidagi turli lug`atlar va adabiyotlarda berilgan ta`riflar haqida qisqacha to‘xtalib, so‘ngra ushbu masalaga doir maxsus ishlar xususida fikr yuritmoqchimiz. Negaki, epitet haqidagi turli-tuman qarash va ta`riflardagi har xilliklarni anglab yetmasdan turib, ushbu hodisaga nisbatan o‘z munosabatimizni belgilab olishimiz qiyin.

Ma'lumki, har qanday so‘z o‘z-o‘zidan badiiy ma`no kasb etmaydi. Alovida olingen har bir so‘z badiiy ma`no anglatishdan ko‘ra nominativ (atash) vazifasini o‘taydi. Jumladan, "atirgul" so‘zi gullarning bir turini bildiradi. Ammo u badiiy kontekstda biror aniqlovchi bilan birga qo‘llanganida o‘zining nominativ ma`nosidan tashqari gulning biror belgi yoki xususiyiyatini ajratib ham ko‘rsatadi . Binobarin, badiiy matnda belgilangan belgi yoki xususiyati ajratilgan narsa obrazga aylanadi. Chunonchi, qizil atirgul yoki oq atirgul deyilganida, predmet oldidan aniqlab kelayotgan sifat nafaqat oddiy aniqlovchi, balki narsani yo ramziy, yo istioraviy ma`noda obraz darajasiga ko‘taruvchi badiiy unsurga aylanadi. Demak, epitet shaxs, narsa yoki voqeа- hodisaning oddiy aniqlovchisi emas , balki ularning poetik obraz darajasidagi mohiyatini, qimmatini ado yetuvchi vazifasini belgilovchi badiiy hodisa bo‘lib, sheriyatdagi g`oyaviy-estetik vazifalarini yoritish uchun unga berilgan ta`riflar haqida albatta to‘xtalib o‘tish zaruriyatini beradi. [1]

Adabiyotlar tahlili

Tilshunos olim V.I.Korolkovning fikricha, epitet sifatlash vositasida narsaning obrazli aniqlanishidan iborat bo‘lib, u zaruriy va bezovchi kabi xillardan tashkil topgan. [7] Biroq hozirgi paytda zaruriy epitet termini barham topib, ikkinchi ma`nodagi epitetylар bir qadar o‘zgarishlarga uchragan, degan qrashlar ilgari surilgan. Chunki epitet faqat bezakdorlik (ornamental) xususiyatdan ko‘ra, mantiqiy, ruhiy, adabiy, lingvistik kabi bir qator ma`no va aspektlarda qo‘llaniladi. Mana shunga asoslanib, V.I.Korolkov oddiy aniqlovchi bilan epitet o‘rtasidagi uchta farqni alovida ko‘rsatishga va isbotlashga harakat qiladi. Uning yozishicha, aniqlovchi bilish nuqtai nazaridan narsa belgisining bir jihatini ifodalaydi, ammo uning mazmuniga qo‘srimcha ma`no kiritish vazifasini olmaydi. Boshqacha aytganda, oq atirgul deyilganda, gulning faqat oq rangi qayd etilmoqda, ya`ni mantiqiy tasnif amalga oshirilmoqda. Epitetda esa narsa yoki hodisadan olingen belgi, xususiyiyat kuchaytiriladi, ta’kidlanadi. Shu bois epitet obraz yaratishda ijodkor uchun juda qo‘l keladi.

Metodologiya

Bizningcha, epitetga bunday yuzaki qarash va uni aniqlovchidan sun`iy ravishda farqlashga urinish ilmiy mantiqqa zid. Nazarimizda, avvalo "epitet" va "aniqlovchi" atamalarini qanday matnda qo‘llash lozimligini aniqlab olmoq zarur. Agar badiiy matnda narsaning alohida belgi yoki sifati ta‘kidlansa, oddiy aniqlovchi ham epitetga aylanadi. Deylik, biror bir so‘z ikkinchi bir so‘zning muayyan belgisi yoki xususiyatini qanday qayd etsa va konkret poetik maqsadni nazardan tutmasa, u holda sifatlovchi so‘z aniqlovchi deb yuritiladi. Bundan shu narsa ma'lum bo‘ladiki, "aniqlovchi, sifatlovchi" atamalari ilmiy termin va ular lingvistikaga taalluqli, epitet esa poetika, badiiylik atamasi bo‘lib, u adabiyotshunoslikka mansub. Binobarin, har bir atamani o‘z o‘rnida qo‘llash lozim. Ana shunda terminologik chalkashliklarga o‘rin qolmaydi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, "epitet" termini badiiy matnlar tahlili uchun xos va bu atama asosida hamma vaqt poetik mano ko‘zda tutiladi. [4] " Aniqlovchi ", " sifatlash " kabi atamalar esa tilshunoslik uchun xos bo‘lib , ular narsaning belgi-xususiyatlarini ko‘rsatish maqsadini ko‘zda tutadi, xolos.

Aniqlovchi va epitetga xos ikkinchi farqini V.I.Korolkov kommunikativ nuqtai nazardan belgilaydi.[7] Uning ko‘rsatishicha, aniqlovchi narsaning faqat bir belgisinigina aniqlashga xizmat qiladi. Epitet esa narsadagi turli xossalari, belgilar ichidagi alohida olingan bir belgini ham subyektiv, ham emotsional aniqlashga xizmat qiladi. Biz ham muallifning bu fikriga to‘la qo‘shilamiz. Chunki aniqlovchining vazofasi belgini qaid etishdan iborat bo‘lsa, epitet belgining sub'ektiv - emotsional bahosidan iborat.

Tahlil va natijalar

Aniqlovchi va epitet o‘rtasidagi uchinchi farqni V.I.Korolkov juda aniq belgilaydi. Uning fikricha, aniqlovchini faqat ilmiy matnlarga nisbatan barqaror birikmalarga jory etish mumkin. Masalan, "Buyuk Xitoy devori" birikmasidagi "Buyuk Xitoy" aniqlovchisini Buyuk Hindiston devoriga nisbatan qo‘llab bo‘lmaydi. Epitelarda esa ijodkorning sub`ektiv hukmiga ko‘ra belgi, xususiyiyati aniqlanayotgan narsa bilan aniqlanayotgan belgi, xususiyiyat o‘rtasida erkin munosabat bo‘ladi. Masalan, "yumshoq qalb", "alamli yurak" kabi epitetli birikmalar shaklan turlicha bo‘lishlariga qaramay, ko‘p jihatidan o‘zaro yaqin.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, poetikaga oid adabiyotlarda, ayniqsa, tilshunoslikka bag‘ishlangan tadqiqotlarda epitetlar bir necha jihatdan tasnif etilgan.[10] Jumladan, qilich qosh, qalam qosh yoki baroq qosh kabi epitetlar tovushlar uyg‘unliga ko‘ra alohida guruhga ajratilgan.

Ko‘rinayaptiki, bu epitet va u aniqlagan narsaning nomi ifodalangan so‘zning birinchi tovushi o‘xhash alliteratsiyaga asoslangan. Aslida esa alliteratsiyaga asoslangan epitetlar adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan baholovchi epitet sanaladi. Chunki bu xildagi epitetlar tovushlar uyg‘unligi jihatidan emas, balki aniqlanayotgan narsaning qimmati, unga bo‘lgan munosabatning ahamiyatiga ko‘ra mohiyat kasb etadi. Qolaversa, epitetlar badiy matn uchun so‘zlovchining u yoki bu narsaga bo‘lgan sub`yektiv munosabatini ifodalashi, yani axborot berish funksiyasi bilan qimmatlidir. Misol uchun “huvillagan hovli, mung‘aygan devor” kabi

birikmalarda "huvillagan, mung‘aygan" kabi epitetlar hovli va devorning holati haqida xabar berishi bilan ularga nisbatan sub`yektiv munosabatni ham anglatadi.

Epitet badiiy tasvirning muhim sifatida badiiy ko‘chimlar orqali ham ifodalanishi mumkin. Uvillagan dengiz, kulgan vodiylar, sassiz qumlar kabi birikmalarda metaforik epitetlar aniqlanayotgan narsaning sifati, maqomi haqida tinglovchiga ham hissiy ham aqliy baho beradilar.

XULOSA

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqadigan xulosa shuki, har qanday aniqlovchi - sifatlovchi epitet bo‘la olmaydi. Binobarin, aniqlovchi - sifatlovchining epitetlik maqomini olish uchun aniqlovchi hamda aniqlanmish o‘rtasida muayyan darajada estetik ahmiyatga molik munosabat bo‘lishi shart.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Томашевский Б. В. Теория литературы. Изд. 3-е. – М. – Л., 1927. – С. 34.
2. Москвин В.П. Эпитет как предмет теоретического осмысления // Электронный научнообразовательный журнал ВГПУ “Границы познания”. №4 (14). Декабрь, 2011. www.grani.vspu.ru.
3. Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. – Л., 1959.
4. Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977.
5. Веселовский А. Н. Историческая поэтика. – Л., 1940. – С. 73.
6. Горнфельд А. Эпитет. — В кн.: Вопросы теории и психологии творчества, т. 1. Изд. 2-е. – Харьков, 1911. – С. 340.
7. Корольков В.И. Метафора. Краткая литературная энциклопедия: в 9 т. Том 4. 1967. М.: Советская энциклопедия. 4. 795 с.
8. Зеленецкий А. Эпитеты литературной русской речи, ч. 1. – М., 1913.
9. Ломоносов М. В. Полн. собр. соч., т. 7. – М. – Л., 1952. – С. 130.
10. Рахматуллаев Ш. Фразеологический толковый словарь узбекского языка. - Ташкент: Учитель, 1978.